Abstract. This article discusses ways to develop Islamic banking services in commercial banks, including analyzing existing problems and improving development prospects. The article also reflects existing problems in the prospects for the development of the use of Islamic banking services in the activities of commercial banks of the Republic of Uzbekistan, as well as the author's approaches and proposals for eliminating them.

Keywords: Commercial banks, Islamic finance, SOFR (Secured Overnight Financing Rate) and LIBOR (The London Interbank Offered Rate) rates, murabaha, financing, Islamic banks, Islamic windows, Islamic banking services.

Аннотация. В данной статье рассматриваются пути развития исламских банковских услуг в деятельности коммерческих банков, а также анализируются существующие проблемы и направления совершенствования перспектив их развития. Кроме того, в статье освещаются перспективы использования исламских банковских услуг в деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан, существующие проблемы в данном направлении, а также предлагаются авторские подходы и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: коммерческие банки, исламские финансы, мушарака, сукук, мудараба, мурабаха, финансирование, исламские банки, исламские окна, исламские банковские услуги.

KIRISH

Jahonda keyingi yillarda jadal rivojlanib borayotgan va jahon moliyaviy makonini egallab borayotgan islomiy moliya tizimiga oid izlanishlar keng miqyosda olib borilmoqda. Tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning funksional elementlarini aniqlashtirish, tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, islomiy bank xizmatlarini joriy etish manbalarini shakllantirish, mazkur xizmatlarni joriy etishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish, milliy iqtisodiyotda tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda islomiy banklar, sug'urta tashkilotlari, investitsiya jamg'armalarini tashkil qilish masalalariga muhim ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis palatalariga yo'llagan Murojaatnomasida: "Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi"¹, deb ta'kidlab o'tildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi", deb ta'kidlab o'tdi [1].

Pokistonlik yana bir islomiy olim va iqtisodchi Muhammad Taqi Usmoniy bo'lib, islom bankchiligida axloqiy jihatlar muhimligini ham ta'kidlaydi. Unda adolat, oshkorlik, hisobdorlik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga amal qilishga chaqiriladi. Uning fikricha, bank operatsiyalari halollikka asoslanishi kerak. Usmoniy tomonidan taklif qilingan yana bir konsepsiya Islomiy Mudaraba bank shartnomasidir. U omonatchilar va banklar o'rtasidagi hamkorlikning ushbu shaklidan foydalanishni taklif qiladi, bunda banklar omonatchilar mablag'larini boshqaruvchi vazifasini bajaradi va o'z ishi uchun komissiya oladi [2].

Suriyalik olim Monzer Kahf islomiy moliya va bank ishi bo'yicha ko'plab maqola va kitoblar muallifi. Monzer Kahf islomiy banklarni suiiste'mol qilishning oldini olish va barqarorligini saqlab qolish uchun qat'iy tartibga solish va nazorat qilish zarurligiga ishora qiladi. U islom moliya tizimidagi risklarni samarali monitoring qilish va baholash muhimligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, Monzer Kahf islom banklariga axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli moliyaviy tizimni yaratish vositasi sifatida ijobiy nuqtayi nazarga ega. U ularni, ayniqsa, kambag'allar uchun iqtisodiy rivojlanishga erishish vositasi sifatida ko'radi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan tijorat banklarida islom bank xizmatlaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistondagi tijorat banklarida islomiy bank xizmatlari tashkil etilgan banklarining murobaha shartnomasi ICD kredit mablag'lariga ta'sir etuvchi omillar ekonometrik modellar asosida baholandi. O'zbekistondagi tijorat banklarida murobaha shartnomasi ICD kredit mablag'lariga ta'sir etuvchi omillar ta'sirini baholashda panel korrelyatsion va regressiya tahlillarini amalga oshirish maqsadga muvofiq ko'rildi. To'plangan amaliy ma'lumotlarimiz, jumladan maxsus ko'rsatkich, ya'ni panel ma'lumotlari asosida tahlil qilinib, xususan ushbu panel birliklari sifatida mamlakatimizdagi "Turonbank" ATB, "Trustbank" ATB, "Hamkorbank" ATB va "Kapital bank" ATBlarning murobaha shartnomasi ICD kreditiga ta'sir etuvchi omillar, xususan SOFR (Secured Overnight Financing Rate) stavkasi va LIBOR (The London Interbank Offered Rate) stavkalari ta'siri tijorat banklari kesimidagi ma'lumotlar bazasi asosida 2020–2024-yillar aks ettirildi. Mazkur ma'lumotlardan kelib chiqqan holda panel ma'lumotlari asosida regressiya va korrelyatsion tahlil amalga oshirildi².

Panel ma'lumotlari asosidagi ekonometrik tahlilni amalga oshirish orqali "Turonbank" ATB, "Trustbank" ATB, "Hamkorbank" ATB va "Kapital bank" ATBlarning islomiy moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini aniq baholash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, O'zbekistondagi tijorat banklarini islomiy moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi omillar orqali ekonometrik model shakllantirilib, ushbu model asosida prognoz ko'rsatkichlari tizimlashtirildi. Ushbu modellarni tuzishda hozirgi kunda ekonometrikada keng qo'llanilayotgan "EViews 11" dasturidan foydalanildi.

Ko'p omilli regressiya va korrelyatsion ekonometrik modelini tuzishda natijaviy omil sifatida tanlangan tijorat banklarining islomiy moliyalashtirish mablag'lari (ICD) va unga ta'sir qiluvchi omillar belgilanib, tadqiqot gipotezalari aniqlandi:

X1 – SOFR (Secured Overnight Financing Rate) stavkasining tijorat banklarining islomiy moliyalashtirish mablag'lari o'sishiga bog'liqligi va yuqori ta'sirga egaligi;

X2 – LIBOR (The London Interbank Offered Rate) stavkasining aksiyadorlik jamiyatlarining tijorat banklarining islomiy moliyalashtirish mablag'lari o'sishiga bog'liqligi va yuqori ta'sirga egaligi.

Yuqoridagi gipotezalardan kelib chiqqan holda quyidagi matematik funksiyalar shakllantirildi:

$$ICD_c = \alpha + \beta_1 SOFR_1 + \beta_2 LIBOR_2 + \varepsilon_i \quad \beta > 0 \quad (1)$$

Bu yerda:

ICD_c - tijorat banklarini islomiy moliyalashtirish mablag'lari;

2 <http://www.classes.ru/dictionary-english-russian-scienceenru-term-78341.htm>. Ko'p o'lchovli vaqtlar qatori ma'lumotlari

SOFR - SOFR (Secured Overnight Financing Rate) stavka;

LIBOR - LIBOR (The London Interbank Offered Rate) stavka;

Bugungi kunda dunyo olimlari panel ma'lumotlari asosida kapitallar qiymatiga koeffitsiyentlarning ta'sirini panel regresson va korrelyatsion ekonometrik tahlilni amalga oshirganlar. Xususan, Txan Son Luonga³, Szyasi Sin⁴, Eduardo⁵ va Kent Beyker⁶lar o'zlarining tadqiqotlarida kapital qiymatga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib, yig'ma model (pooled model), o'zgarmas effekt model (Fixed effect model) va tasodifiy effekt model (random effect model) modellardan foydalanganlar. Mahalliy olimlardan esa, Sh.I. Mustafaqulov o'zining ilmiy izlanishida panel ma'lumotlari usulida ekonometrik tahlilni amalga oshirib, erksiz o'zgaruvchini asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya qilib olgan holda ekonometrik tahlil qilgan. Tadqiqotchi dunyoda eng ko'p tarqalgan o'zgarmas ta'sirlar (OLS) va tasodifiy ta'sirlar (GLS Generalized least squares, MLE – Maximum likelihood estimation) modellari, deb ta'kidlaydi⁷.

Birinchi bosqichda: Panel ma'lumotlari asosida korrelyatsion matritsani amalga oshiramiz. Chunki, ko'p omili funksiyani shakllantirishda erksiz o'zgaruvchilar orasida qandaydir darajada korrelyatsiya mavjud bo'lib bu esa multikolliniarlik⁸ muammosini keltirib chiqaradi.

Ikkinchi bosqichda: Tanlangan o'zgaruvchilar o'rtasidagi multikolliniarlik muammosini hal qilinganidan so'ng, panel modellarini shakllantiramiz.

Uchinchi bosqichda: Shakllantirilgan panel modellarining qaysi biri yaxshiroq model ekanligini tanlash uchun test o'tkaziladi.

To'rtinchi bosqichda: Tanlangan yaxshiroq model orqali tijorat banklarini islomiy moliyalashtirish mablag'lari (ICD)ni 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun prognozi amalga oshiriladi.

Tadqiqotimizdagi panel modelida ishlatiladigan o'zgaruvchilarning tasviriy statistikasini quyidagi jadvalda yaqqol ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval. Panel modelida ishlatiladigan o'zgaruvchilarning tasviriy statistikasi⁹

O'zgaruvchilar	Kuzatuvlar	O'zgaruvchilarning o'rtachasi	Standart chetlanish	O'zgaruvchilarning maksimum nuqtasi	O'zgaruvchilarning minimum nuqtasi
ln_icd	20	7,7046	1,5601	7,7329	3,0144
ln_sofr	20	0,5577	15,4144	69,9490	0,8321
ln_libor	20	0,4442	0,1941	0,9358	0,2539

1-jadvaldagi panel ma'lumotlari asosida o'zgaruvchilarning tasviriy statistikasidan tijorat banklarining islomiy moliyalashtirish mablag'larining (ln_icd) o'rtacha tebranishi 7,7046 bandni tashkil etsa, mazkur o'zgaruvchining maksimum nuqtasi 7,7329 bandni, minimum nuqtasi 3,0144 bandni, standart chetlanish esa 1,5601 bandni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa tijorat banklarining islomiy moliyalashtirish mablag'lari qay darajada tebranganligini ko'rsatadi.

ln_sofr stavkasini tasviriy statistikada tahlil qiladigan bo'lsak, o'rtacha tebranishi ko'rsatkichi 0,5577 bandni, maksimum nuqtasi 69,9490 bandni, minimum nuqtasi 0,8321 bandni tashkil etib, standart chetlanishi esa 15,4144 bandni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, qolgan ln_libor stavkasining ham o'rtacha tebranishi, maksimum nuqtasi, minimum nuqtasi va standart chetlanishining ko'rsatkichlari keltirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarining islomiy moliyalashtirish mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan stavkalar darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

3 Luong, T. S., Qiu, B., and Wu, Y. A. (2021). Does it pay to be socially connected with Wall Street brokerages? Evidence from cost of equity. Journal of Corporate Finance Volume 68, doi: 10.1016/j.jcorpfin.2021.101939

4 Qin, J., Yang, X., He, Q., & Sun, L. (2020). Litigation risk and cost of capital: Evidence from China. Pacific-Basin Finance Journal, 101393. doi:10.1016/j.pacfin.2020.101393

5 Kayo, E. K., Martelanc, R., Brunaldi, E. O., & da Silva, W. E. (2020). Capital asset pricing model, beta stability, and the pricing puzzle of electricity transmission in Brazil. Energy Policy, 142, 111485. doi:10.1016/j.enpol.2020.111485

6 Baker, H. K., De Ridder, A., & Råsbrant, J. (2019). Investors and Dividend Yields. The Quarterly Review of Economics and Finance. doi:10.1016/j.qref.2019.09.004

7 SH.I.Mustafaqulov "O'zbekistonda investision muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish" Avtoreferat T, 2017, 26 b.

8 <https://translate.academic.ru/multicollinearity/en/ru/>. Regression tahlilda ikki va undan ortiq mustaqil (bog'liq bo'lmagan) o'zgaruvchilar o'rtasida yuqori korrelyasiyadir.

9 Jadval "Turonbank" ATB, "Transbank" ATB, "Hamkorbank" ATB va "Kapital bank" ATBlarning ma'lumotlari asosida Eviews-11.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.



O'zgaruvchilarning miqdoriy darajada ekanligini tekshirganimizdan keyin panel ma'lumotlari asosida korrelyatsion matritsani shakllantiramiz. Sababi, tadqiqotimizda panel ma'lumotlar asosida ko'p omilli chiziqli funksiya tuziladi. Biroq, ko'p omilli funktsiyani shakllantirishda mustaqil va tobe o'zgaruvchilar orasida ma'lum darajada korrelyatsiya mavjud bo'lib, bu esa o'z navbatida multikollinarlik muammosini keltirib chiqaradi. Shu sababli tobe o'zgaruvchiga asosiy ta'sir qiluvchi mustaqil o'zgaruvchilarning ta'siri yo'qolishiga olib keladi.

Shundan kelib chiqqan holda multikollinarlik muammosini hal qilish maqsadida tanlangan o'zgaruvchilarning korrelyatsion matritsasini shakllantirib, kuchli ta'sir qiluvchi omillar tanlab olinadi. Shundan so'ng kuchli ta'sir qiluvchi omillar tanlab olinib, yig'ma, o'zgarmas effekt va tasodifiy effekt modellarining ko'rsatkichlarini hisoblash amalga oshiriladi.

Agar biz mazkur erkli o'zgaruvchilar bo'yicha gipoteza testini o'tkazsak, uchta modelda ham $\ln_icd$ o'zgaruvchining koeffitsiyenti 90 foizlik darajada statistik muhim ekanligi kuzatiladi. Bundan tashqari, tasodifiy effektlar modelida $\ln_sofr$ va $\ln_libor$ erkli o'zgaruvchilari ham 99 foizlik statistik muhimlik darajasida ta'sir etmoqda. Bu shuni anglatadiki, ikkita erkli o'zgaruvchi erksiz o'zgaruvchiga to'liq ta'sir etishini ifodalay oladi.

R-kvadratga nazar tashlasak, uchala modelda ham qiymatning 1 ga yaqinligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, o'zgarmas effektlar modelida R-kvadrat ko'rsatkichi deyarli 1 ga yaqinlashgan (2-jadval).

2-jadval. Regression modellar ko'rsatkichlarining natijalari (2014-2019-yillar ma'lumoti asosida)¹⁰

Erksiz o'zgaruvchi ($\ln_icd$)	(1)	(2)	(3)
	Yig'ma model	O'zgarmas effektlar modeli	Tasodifiy effektlar modeli
$\ln_sofr$	-17.8469*** (0.0008)	-2.7743*** (0.0554)	-17.8469*** (0.0000)
$\ln_libor$	-5.612523 (0.0008)	1.234082 (0.2543)	-5.6125 (0.0000)
S(constant)	6.25170** (0.0000)	5.1804** (0.0000)	6.2517** (0.0000)
Kuzatuvlar soni	20	20	20
R-kvadrat	0.6008	0.9548	0.6008

Qavslar ichidagi ko'rsatkichlar standart xatolik P-qiymatdagi, ***P<0,01, **P<0,05, *P<0,1

2-jadvaldagi uchta modelda tanlangan erkli o'zgaruvchilarning yig'ma modelidagi P-qiymati 0,001 dan kichik ekanligini kuzatish mumkin. Biroq, o'zgarmas effektlar modelida tanlangan erkli o'zgaruvchilar hisoblangan $\ln_icd$, $\ln_sofr$ va $\ln_libor$ ko'rsatkichlarining P-qiymati 0,001 dan kichik ekanligi kuzatiladi. Tasodifiy effektlar modelida barcha erkli o'zgaruvchilarning P-qiymati 0,001 dan kichik ekanligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi uchta modelning ekonometrik ko'rinishini quyidagi formulada kuzatish mumkin.

1. Yig'ma model

$$\ln_ev_{it} = 6.25170 - 17.8469 * \ln_sofr_{it} - 5.612523 \ln_libor_{it} + e_{it} \quad (2)$$

2. O'zgarmas effektlar modeli

$$\ln_ev_{it} = 5.1804 - 2.7743 * \ln_sofr_{it} - 1.234082 * \ln_libor_{it} + e_{it} \quad (3)$$

3. Tasodifiy effektlar modeli

$$\ln_ev_{it} = 6.2517 - 17.8469 * \ln_sofr_{it} - 5.6125 * \ln_libor_{it} + e_{it} \quad (4)$$

Hisoblangan yig'ma, o'zgarmas va tasodifiy effektlar modellarining ko'rsatkichlariga nazar tashlasak, farq juda katta emasligini kuzatish mumkin. Mazkur modellardan qaysi biri yaxshiroq ekanligini aniqlash uchun xorijlik iqtisodchi olim J. Xausman testidan foydalangan holda hisob-kitoblar amalga oshirildi. Xausman testiga ko'ra, agar regressor (mustaqil o'zgaruvchi) va effektlar o'rtasida korrelyatsiya mavjud bo'lmasa, o'zgarmas va tasodifiy effektlar mavjud bo'ladi, ammo o'zgarmas effektlar samarasiz hisoblanadi. Regressor va effektlar o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lsa, o'zgarmas effektlar mavjud, lekin tasodifiy ta'sir mavjud emas deb qaraladi. Nolinchi gipoteza asosan quyidagi ekonometrik formula bilan aniqlanadi:

$$W = [\beta_{RE} - \beta_{FE}] [V(\beta_{RE}) - V(\beta_{FE})]^{-1} [\beta_{RE} - \beta_{FE}]' \sim \chi^2_{2k} \quad (5)$$

Agar W ahamiyatli bo'lsa, ya'ni ehtimolligi 5 foizdan kam bo'lsa, o'zgarmas effektlar modeli yaxshiroq model hisoblanadi. Agar mazkur ehtimollik ko'rsatkichi 5 foizdan katta bo'lsa, tasodifiy effektlar modeli yaxshiroq deb qaraladi. Ushbu testning tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan (3-jadval).

10 Jadval "Turonbank" ATB, "Transbank" ATB, "Hamkorbank" ATB va "Kapital bank" ATBlarning ma'lumotlari asosida Eviews-11.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

3-jadval. J.Xausman testi natijalari¹¹

O'zgaruvchilar	O'zgarmas ta'sir (a)	Tasodifiy ta'sir (b)	O'zgaruvchilarning farqi (a-b)	Ehtimollik darajasi
ln_sofr	-5.774357	-17.846915	4.908149	0.0000
ln_libor	1.234082	-5.612523	0.811982	0.0000
		CHi-kvadrat (χ^2) statistikasi	CHi-kvadrat taqsimoti	Ehtimollik darajasi
Tasodifiy effektlarning kross-seksioni (Cross-section random)		101.988938	3	0.0000

3-jadvaldagi Xausman testi natijalari tasodifiy effektlar modeli boshqa modellarga nisbatan yaxshiroq ekanligini ko'rsatmoqda. Tasodifiy effektlar modeli yaxshiroq ekanligi P-qiymat ehtimolligi ko'rsatkichiga ko'ra nolinch gipoteza va muqobil gipoteza farazidan foydalanib aniqlandi. Unga ko'ra, nolinch gipoteza sifatida tasodifiy ta'sir modeli qabul qilinib, uning muqobil varianti, ya'ni o'zgarmas ta'sir modeli rad etildi. Tadqiqotimizdagi Xausman testidagi (χ^2) statistik muhimlik darajasi 5 foizdan kichik bo'lgani va P-qiymat 0,0000 ga tengligi o'zgarmas effektlar modeli boshqa modellarga nisbatan yaxshiroq ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur testdan keyin qoldiqlar (residuals) o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik testini o'tkazamiz. Ushbu testning natijasini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin. 4-jadvaldagi qoldiqlar o'rtasidagi bog'liqlik testi qoldiqlar o'rtasida korrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatadi. Chunki nolinch gipotezani o'tkazganimizda Breusch-Pagan LMning P-qiymati 5 foizdan kichik bo'lib, unga ko'ra qoldiqlar o'rtasidagi korrelyatsiya mavjud emasligi inkor etilib, muqobil gipotezaga ko'ra qoldiqlar o'rtasidagi korrelyatsiya mavjudligi qabul qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatlari kapitallari qiymatining o'sib borishiga ta'sir qiluvchi koeffitsiyentlar ta'siri yuqori ekanligidan dalolat beradi (4-jadval).

4-jadval. Tasodifiy ta'sirlar modelining qoldiqlari o'rtasidagi bog'liqlik testi natijalari¹²

Test	Statistik qiymat	Erkinlik darajasi	Ehtimolliq darajasi
Breusch-Pagan LM	11.77076	6	0.0673
Pesaran scaled LM	0.511174		0.6092
Pesaran CD	2.239040		0.0252

Panel ma'lumotlari asosida uchta model orqali tahlil qilinganda o'zgarmas effektlar modeli eng maqbuli hisoblanadi. Mazkur modelning mustahkamligini aniqlash testi, ya'ni qoldiqlar o'rtasidagi bog'liqlik mavjud emasligi modelning prognoz qilish imkoniyati mavjud ekanligidan dalolat beradi. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapitali qiymatiga ln_sofr va ln_libor stavkalari ta'siri o'rganilganda, ln_sofr va ln_libor stavkalari bevosita ta'sir qilishini ko'rsatdi. O'zgarmas effektlar modelidagi boshqa omillar o'zgarmagan holda ln_sofr stavkasini bir foizga oshishi tijorat banklarining islomiy (ICD) kreditlaridan foydalanish 2,7 foizga tushishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda tijorat banklarining islomiy (ICD) kreditlariga bevosita ta'sir etuvchi omillarni baholashda tasodifiy ta'sir modelidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida tijorat banklarining islomiy (ICD) kreditlarini o'rta va qisqa muddatda o'zgarishini hamda yaqin kelajakda tijorat banklarining islomiy (ICD) kreditlariga bo'lgan talabni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotimizda tanlangan tasodifiy effektlar modeli eng maqbul hisoblanadi. Shu sababli tanlangan modelning diagnostika testi shuni ko'rsatdiki, tasodifiy effektlar modeli to'g'ri prognoz qilish imkoniyatiga ega. Shuning uchun ilmiy ishimizda tasodifiy effektlar modeli orqali aksiyadorlik jamiyatlari kapitallari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar hisoblangan stavkalar bilan prognoz amalga oshiriladi (5-jadval).

11 Jadval "Turonbank" ATB, "Transbank" ATB, "Hamkorbank" ATB va "Kapital bank" ATBlarning ma'lumotlari asosida Eviews-11.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

12 Jadval "Turonbank" ATB, "Transbank" ATB, "Hamkorbank" ATB va "Kapital bank" ATBlarning ma'lumotlari asosida Eviews-11.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

5-jadval. O'zbekiston tijorat banklarini ICD krediti orqali moliyalashtirilgan mablag'lar prognozi 2025-2023-yillar¹³

Yillar	ICD krediti (ming AQSH dollari)	SOFR stavka foizda
2025	139797	6,2
2026	145985,1	4,4
2027	151532,5	3,8
2028	157290,7	3,8
2029	163110,5	3,7
2030	169308,7	3,8

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdi, aksiyadorlik jamiyatlarining kapitallari qiymati 2030-yilga kelib SOFR stavkasi deyarli 1,63 barobarga tushganligini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri O'zbekiston tijorat banklarining ICD kreditlari arzonlashishi va islomiy bank xizmatlari narxining tushishi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, SOFR stavkasining tushishi O'zbekiston tijorat banklarining ICD kreditlari hajmining oshishi kutilmoqda, xususan, 21 foizga oshishi kuzatilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston tijorat banklarining ICD kreditlari hajmining ortishiga asosiy ko'rsatkichlar aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari bozor qiymatining o'sishi, SOFR stavkasining foizi tushishi va uning keskin o'zgarishi hisoblanadi. SOFR stavkasining foizi tushishi O'zbekiston tijorat banklarining ICD kreditlaridan foydalanishiga talab ortadi. Shuningdek, murobaha shartnomasi asosida ICD krediti olish hajmining keskin ortishiga olib keladi.

Chunki tadqiqotlarimizga asosanib aytishimiz mumkinki, SOFR stavkasi murobaha shartnomasi asosida ICD krediti orqali mablag'lar hajmiga va qiymatiga ta'sir qiladi.

Ushbu yondashuvlar tijorat banklariga yangi mijozlar bazasini jalb qilish va taklif etilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirish orqali islomiy bank xizmatlarini o'z faoliyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalashda yordam beradi.

Mamlakatimiz tijorat banklarida islom bank xizmatlarini joriy etish bir qator ijobiy o'zgarishlar va yangi imkoniyatlarga olib kelishi mumkin. Islomiy moliyaviy xizmatlar islomiy tamoyillarga amal qiladigan va ribodan (foizdan) qochishni afzal ko'rgan mijozlarni jalb qilishi mumkin. Bu banklarga mijozlar bazasini ko'paytirishga yordam beradi. Murabaha, ijara va boshqalar kabi islomiy moliyaviy vositalarni joriy etish banklarga yangi mahsulotlarni taklif qilish imkonini beradi, bu esa daromadlarni oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Usmani M. M. T. An introduction to Islamic finance. – Brill, 2021. – T. 20.
3. M Kahf Islamic banks: The rise of a new power alliance of wealth and shari'a scholarship- The politics of Islamic finance, 2004
4. <http://www.classes.ru/dictionary-english-russian-scienceenru-term-78341.htm>. Ko'p o'lchovli vaqtlar qatori ma'lumotlari
5. Luong, T. S., Qiu, B., and Wu, Y. A. (2021). Does it pay to be socially connected with Wall Street brokerages? Evidence from cost of equity. Journal of Corporate Finance Volume 68, doi: 10.1016/j.jcorpfin.2021.101939
6. Qin, J., Yang, X., He, Q., & Sun, L. (2020). Litigation risk and cost of capital: Evidence from China. Pacific-Basin Finance Journal, 101393. doi:10.1016/j.pacfin.2020.101393
7. Kayo, E. K., Martelanc, R., Brunaldi, E. O., & da Silva, W. E. (2020). Capital asset pricing model, beta stability, and the pricing puzzle of electricity transmission in Brazil. Energy Policy, 142, 111485. doi:10.1016/j.enpol.2020.111485
8. Baker, H. K., De Ridder, A., & Råsbranct, J. (2019). Investors and Dividend Yields. The Quarterly Review of Economics and Finance. doi:10.1016/j.qref.2019.09.004
9. Sh.I.Mustafaqulov "O'zbekistonda investision muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish" Avtoreferat T, 2017, 26 b.
10. <https://translate.academic.ru/multicollinearity/en/ru/>. Regression tahlilda ikki va undan ortiq mustaqil (bog'liq bo'lmagan) o'zgaruvchilar o'rtasida yuqori korrelyasiyadir.
11. "Turonbank" ATB, "Transbank" ATB, "Hamkorbank" ATB va "Kapital bank" ATBlarning ma'lumotlari asosida Eviews-11.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

13 Jadval "Turonbank" ATB, "Transbank" ATB, "Hamkorbank" ATB va "Kapital bank" ATBlarning ma'lumotlari asosida Eviews-11.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100